



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YANGI O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA XORIJ TAJRIBASI

MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

TOSHKENT-2023



Other events, students will have the opportunity to introduce themselves to and learn from world-class industries.

Cluster systems often provide opportunities for faculty and staff development. They can organize seminars, conferences and training programs to improve teaching methodology and encourage continuous learning.

Cluster systems can have a positive impact on the regional economy and society. By pooling resources and expertise, they can attract funding, research grants and partnerships with local industry, stimulating economic development and innovation.

Cluster systems create a network of institutions, establishing partnerships and collaborations beyond the participating institutions. This will expand opportunities for exchange programs, research collaborations and joint initiatives with other educational institutions and industry partners.

It should be noted that cluster systems in higher education may have different structures and models from region to region or even within a country. The specific objectives, governance and organization of cluster systems may vary depending on the needs and priorities of the participating institutions.

In conclusion, cluster systems in higher education offer a range of benefits, including enhanced collaboration, specialization, resource sharing, and expanded opportunities for students and faculty. These systems promote innovation, facilitate international collaborations, and contribute to regional economic development. While the structures and models of cluster systems may vary, their common goal is to foster growth and excellence in higher education institutions

Aholi turmush darajasini oshirish va aholini ish bilan bandligini ta'minlash

**Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li, Buxoro davlat universiteti iqtisodiyot kafedrasи
o'qituvchisi**

O'zbekistonning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishining asosiy maqsadlaridan biri aholi turmush darajasini va sifatini oshirish hamda ijtimoiy soha yo'nalishlarini barqaror rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi. Dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tajribasidan ma'lumki, mamlakatning iqtisodiyoti uni rivojlantirishning ob'ektiv qonuniyatlar, mavjud iqtisodiy imkoniyatlar, ushbu davlatda yashayotgan xalqning o'ziga xos turmush tarzi, taffakkuri, milliy qadriyat va an'analarini, iqtisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqgan holda puxta ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosat orqali amalga oshiriladi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy tarraqiyotini belgilab olishda har tomonlama to'g'ri yo'l tutilgani, xalqimizning hayotiy manfaatlarini chuqr va haqqoniy aks ettingani bajarilayotgan ishlarining natijasidir.

Aholining pul daromadi uning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Daromadlar iste'mol tovarlari va xizmatlarni xarid etish, turli to'lovlarni to'lash, jamg'arma hosil etish uchun sarflanadi. Aholi xarajatlarining obyektiv chegarasi daromad bo'lsa, uning subyektiv chegarasi daromad egasining ehtiyojlaridan tarkib topadi. Shu tufayli daromad bir xil bo'lsada, xarajatlar tarkibi turlicha bo'ladi. Daromad qanchalik ko'p bo'lsa, oziq-ovqat uchun sarflar qisqarib, sanoat mollari va xizmatlarni xarid etish xarajatlari,

chunonchi, uzoq muddat xizmat qiluvchi qimmatbaho tovarlar xaridiga pul ko'pros sarflanadi. Shu jihatidan aholi turli toifalarining xarajatlari bir-biridan farqlanadi.

Kam taminlangan oilalarda ovqatlanish xarajati ustivor bo'lsa, o'ziga to'q va boy oilalarda kiyinish, dam olish, sayohat qilish, qimmatbaho tovarlar xarid etish sarflari ustun turadi. Iqtisodiyoti rivojlangan va xalqi farovon yashaydigan mamlakatlarda aholining oziq-ovqat uchun sarflari qisqarib, minimal darajaga tushadi. Aholi xarajatlarida oziq-ovqat sarflari bilan bir qatorda, nooziq-ovqat tovarlarini xarid etish, pul jamg'arish va qimmatbaho qog'ozlarni orttirishga qaratilgan xarajatlar ham kuzatiladi. Aholi xarajatlariga quyidagilar kiradi:

1. Tovarlar va xizmatlarni sotib olish.

- a) turli shoxobchalardan sotib olingan tovarlar;
- b) xizmatlarni to'lash va boshqa xarajatlar, shu jumladan,
 - uy - joy va maishiy xizmatlar to'lovi;
 - kommunal xizmatlar uchun to'lovlar;
 - ta'lim xizmatlari uchun to'lovlar;
 - kino, teatr, turli tomoshalar uchun to'lovlar;
 - transpot va aloqa xizmatlari uchun to'lovlar;
 - boshqa xarajatlar;

2. Majburiy va ixtiyoriy to'lovlar:

- soliq va yig'imlar;
- sug'urta uchun to'lovlar;
- qarzlarni to'lash;
- lotoreya biletlarini sotib olish;
- tovar krediti uchun foiz to'lovlar;
- nafaqa fondi uchun to'lovlar;

3. Omonatga qo'yilgan va qimmatli qog'ozlarga qilingan sarflarning o'sishi:

- a) banklarga qo'yilgan omonatlarning o'sishi;
- b) bank bilan hisob- kitob qilish maqsadida plastik kartochkalarni sotib olish.
- c) korxonalar aksiyalarini sotib olish;

4. Uy - joy sotib olish;

5. Chet el valyutalarini sotib olish;

6. Pul o'tkazmalarini amalga oshirish.

Vaqt o'tishi bilan daromadning o'zgarmasligi sababli, iste'mol xarajatlari haqidagi ma'lumotlar (hozirgi daromadlar bilan taqqoslaganda) nafaqat uy xo'jaliklarining hozirgi turmush darajasining eng yaxshi ko'rsatkichi, balki uzoq muddatli farovonlikning yetarlicha ishonchli ko'rsatkichi sifatida ham qo'llaniladi³¹⁰.

Mamlakat hukumati ijtimoiy siyosatga katta e'tibor qaratadi, jumladan, 70 % mablag'ni, asosan iqtisodiyot davlat sektorida yangi ish o'rinalarini yaratishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish;

- aholi migratsiyasi va ishchi kuchini, oilalarga ishchi kuchi zich bo'lgan hududlardan vakant joylar bo'lgan xududlarga ko'chib o'tishida subsidiya va kreditlar berish yo'li bilan koordinatsiya qilish;

³¹⁰ Anvar o'g'li, Qulliyev Oxunjon. "Functioning Principles and Main Activities of Multilateral Development Banks." International Journal of Culture and Modernity 15 (2022): 83-86.



- aholining mavjud bo'sh ish joylari to'g'risidagi ma'lumotlarga tezkor murojaatini ta'minlash;

- ishsiz qolgan yoki ishidan ajralib qolish xavf solayotgan shaxslarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlashni amalga oshirish kabi tadbirlarga sarflaydi.

To'liq bandlikga erishish quyidagi ishlarni amalga oshirish orqali amalga oshiriladi.

- cheklovchi fiskal siyosat yurg'izish. Bu siyosat ish haqini oshirishda firmalararo infliyatsiya raqobatini kamaytirish uchun kam foydali korxonalarini qo'llab-quvvatlash va yuqori daromadli firmalar foydasini to'xtab turishga qaratilgan;

- ish haqida "Hamjihatlik siyosati". Ushbu siyosat u yoki bu firma moliyaviy imkoniyatidan qat'iy nazar, teng mehnatga teng ish haqi to'lash maqsadini ko'zda tutadi. Bu esa kam foydali korxonalarning ishchilar sonini qisqartirishga va o'z faoliyatini to'xtatish yoki qayta o'zgartirishiga, yuqori daromadli firmalar - o'z imkoniyati darajasidan kam bo'lgan ish haqi bilan chegaralanishiga olib keladi;

- zaif raqobat qobiliyatga ega ishchilarni mehnat bozorida qo'llab-quvvatlash bo'yicha faol siyosat. Buning uchun tadbirkorlar ko'pgina subsidiyalar oladi;

- ish faoliyati natijasi past bo'lgan, ammo ijtimoiy masalalarini hal etishni ta'minlovchi iqtisodiyot sektorlarida bandlikni qo'llab-quvvatlash.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijodiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorilik sub'yeqtlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyalarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakat aholisining farovonlik darajasini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlaridan biri aholi daromadlari hisoblanadi. Aholining umumiy daromadlari - majburiy to'lovlar va boshqa ajratmalarini amalga oshirgunga qadar bo'lgan yalpi daromadni ifoda etadi³¹¹.

Ma'lumki, mehnat bozoridagi talab ko'p jihatdan tovarlar, investitsiyalar bozoridagi so'rovlarga bog'liq bo'ladi, turli xil mulkchilik shaklida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardagi bandlikni shu omil yuzaga keltiradi. Umumiy tendensiyaga asosan nodavlat sektorida bandlik ortishi hisobidan davlat sektorida bu ko'rsatkichni qisqarib borishi kuzatiladi. Buni davlat korxonalarini xususiylashtirishning o'zi bilan izohlab bo'lmaydi, chunki bandlik darajasi eski ish o'rinalarini saqlanishi bilan birgalikda yangilarini yaratilishiga ham borib taqaladi. Turli korxonalarda yaratilgan ishchi o'rinalari turlicha, shu tufayli bandlikning kapital sig'imi ham farqlanadi. Eng qimmat ishchi o'rinalari davlat va aralash ukladda bo'lsa, eng arzon ishchi o'rinalari xususiy korxonalarda, ayniqsa oilaviy xo'jaliklarda yaratiladi.

Mamlakatimizda ish o'rinalarini tashkil etish sohasidagi davlat siyosati ishsizlikni qisqartirish va aholining ijtimoiy zarur mehnat bilan bandligini ko'paytirish bo'yicha xorijiy davlatlar singari aniq usullar asosida ishlab chiqilishi kerak³¹². Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida aholi ish bilan bandligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari bo'yicha xorijiy amaliyotlar tajribasini ilmiy tadqiq va tahlil etish

³¹¹ Rasulovich K. A., Ulugbekovich K. A. Section: economics //polish science journal. – 2020. – C. 25.

³¹² Qulliyev O. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i //Центра научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

mazkur davlatlar tajribasining ilg'or, respublikamiz uchun qulay bo'lgan jihatlarida foydalangan holda, aholi ish bilan bandlik darajasini oshirishning samarali, istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Корпоратив бошқарувда ички аудит

Сайтова Дилбар Мухамедқуловна, ТерДУ “Молия” кафедраси ўқитувчisi

Ўзбекистонда рақамили иқтисодиёт шароитида ички аудит хизматининг акциядорлик жамиятларини бошқаришда фаол иштирокчисига айланиши, ижтимоий-иктисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш жараёнида миллий иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, турли мулкчилик ва хўжалик юритиш шаклларига асосланган корхона ва бирлашмаларни модернизация қилиш орқали фаолиятини янада ривожлантиришга катта эътибор қаратилмоқда. Хусусан, акциядорлик жамиятлари фаолиятида кузатув кенгашлари, умумий йиғилишлари, тафтиш комиссияларининг роли ва аҳамиятини ошириш, миноритар акциядорларнинг бошқарув жараёнидаги иштирокини таъминлаш, барча акциядорларни ва инвесторларнинг акциядорлик компаниялари фаолияти тўғрисида ахборот олиш имкониятларини кенгайтиришга тааллукли чора-тадбирлар амалга оширилди.

Акциядорлик жамиятлари бошқарув тизимини такомиллаштиришга оид Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 24 апрелдаги «Акциядорлик жамиятларида замонавий корпоратив бошқарув услубларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-4720-сонли фармони акциядорлик жамиятларида замонавий корпоратив бошқарув амалиётига доир тажрибаларни илмий-амалий таҳлил қилиш асосида энг илгор ютуқларни кенг татбифини жорий қилиш, бошқарув органлари фаолиятини тубдан қайта ташкил этиш билан бирга илгор хорижий ва миллий тажрибани умумлаштириш асосида корпоратив бошқарув тизимида ички аудитни такомиллаштириш мақсадида қўлланмалар ва ички корпоратив хужжатлар ишлаб чиқиши мамлакатимизда устувор йўналишлар сифатида қайд этилган. Ички аудит хизмати жамиятнинг ижроия органи, ваколатхоналари ва филиаллари томонидан қонун хужжатларига, таъсис хужжатлари ва бошқа хужжатларга риоя этилишини, бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисботларда маълумотларнинг тўлиқ ҳамда тўғри акс эттирилиши таъминланишини, хўжалик операцияларини амалга оширишнинг белгиланган қоидлари ва тартиб-таомилларига риоя этилишини, активларнинг сақланишини, шунингдек жамиятни бошқариш юзасидан қонун хужжатларида белгиланган талабларга риоя этилишини текшириш ва бу борада мониторинг олиб бориш орқали жамиятнинг ижроия органи, ваколатхоналари ва филиаллари ишини назорат қиласи ҳамда баҳолайди.

Ички аудит хизмати ўз фаолияти давомида бизнес-режанинг бажарилишини, корпоратив бошқарув тамойилларига риоя қилинишини, бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисбот юритилишини ҳамда молиявий хўжалик фаолиятнинг бошқа йўналишларининг тўғри амалга оширилишини, текшириш ва мониторинг қилиши



193	Асқарова М.И.	Рақамли иқтисодиёт шароитида ёшларнинг олий таълимда бандлиги	658
194	Ахмедов М.Ш.	Рақамли иқтисодиёт шароитида корхоналарда персонални бошқаришнинг мотивацион назарияларидан самарали фойдаланиш	661
195	Aliyeva J.A.	Ishlab chiqaradigan korxonani boshqarishda raqamli texnologiyalardan keng foyladalanish	663
196	Avliyakulov A.A., Saydolimova Z.K.	Ta’lim muassasalarida ta’lim sifati tushunchasining mohiyati va uning o‘ziga xos jihatlari	666
197	Байжанов Д.С.	Исломий молия инструментларини молиялаштириш механизmlари	668
198	Bakiyeva I.A.	Raqamli iqtisodiyotda mehnat bozori transformatsiyasi	672
199	Eshtemirov T.J., Eshtemirov Sh.J.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida xorijiy birjalar listingining milliy fond bozorimiz bilan o‘xhashligi	674
200	Yoldashova G.K.	Formation of organizational economic mechanism of organization management in digital economy	676
201	Jumayev Sh.Sh.	Raqamli iqtisodiyotda mehnat unumdarligini oshirishning jihatlari	678
202	Ismoilov N.	Raqamli logistika tushunchasi va uning logistika rivojiga ta’siri	681
203	Karrieva Y.K., Ismoilov N.N.	O’zbekistonning logistika tizimida raqamli transfomasi yani amalga oshirish yo’llari	687
204	Mirzayeva O.I.	Raqamli iqtisodiyotni joriy etishda mehnat bozorini shakllantirish	690
205	Matchanov A.A.	Digital technologies in industrial enterprises	693
206	Mengnarov A.E.	Davlat – xususiy sherikchiligi tashkil etish bo‘yicha xorij tajribalari va undan o‘zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari	695
207	Mirzaliev S.	The benefits and key aspects of cluster systems in higher education	700
208	Qulliyev O.A.	Aholi turmush darajasini oshirish va aholini ish bilan bandligini ta’minlash	703
209	Сайтова Д.М.	Корпоратив бошқарувда ички аудит	706